

## MILLIY IQTISODIYOTDA PUL-KREDIT SIYOSATINING INFLYATSIYA DARAJASIGA TA'SIR MEXANIZMLARI

*Obidova Zilola Ikromjon qizi*

**Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti**

**Annotatsiya.** Maqolada Milliy iqtisodiyotda pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, narxlar barqarorligini ta'minlash va moliya bozorini tartibga solishda qo'llaniladigan murakkab mexanizmlar transformatsiyasi. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash. Global iqtisodiy inqirozda pul – kredit siyosatining ahamiyati.

**Kalit so'zlar:** Milliy iqtisodiyot. pul – kredit siyosati, makroiqtisodiy prognoz, transmission mexanizm, bank resurslari, global iqtisodiy inqiroz, operatsion mexanizm, modernizatsiya, hisob stavkasi.

**Abstract.** The article discusses the transformation of complex mechanisms used in the national economy to stimulate economic growth, ensure price stability and regulate the financial market. The operational mechanism of monetary policy, modernization of the national economy. The importance of monetary policy in the global economic crisis.

**Keywords:** National economy. monetary and credit policy, macroeconomic forecast, transmission mechanism, bank resources, global economic crisis, operating mechanism, modernization, discount rate.

**Kirish.** Global iqtisodiyotdagi kon'yunktura o'zgarishlari, xususan, agregat talab va taklifning tebranishlari sharoitida Markaziy bank tomonidan qabul qilinayotgan pul-kredit siyosatiga oid qarorlarning samaradorligi bevosita transmissiya mexanizmining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Zamonaviy sharoitda pul-kredit siyosatining asosiy rejimi doirasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish pul-kredit siyosatining ustuvor mezoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni inflyatsion kutilmalar bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xalqaro standartlar va prognozlash modellari asosida transmissiya mexanizmining kanallari o'tkazuvchanligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash dolzarb iqtisodiy vazifa hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni"[ ] ijrosini ta'minlash maqsadida pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar va pul-kredit sohasidagi islohatlar inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uning rolini kuchaytirish bo'yicha loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlashda bank tizimini transformatsiya qilish hamda uning faoliyatini modernizatsiyalash ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, milliy iqtisodiyotda pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmining samaradorligini tahlil

qilish, uning o'tkazuvchanlik kanallari ta'sir doirasini kengaytirish hamda ushbu jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar transmissiya kanallarining (foiz, valyuta, kredit) amaliy ta'sirini kuchaytirish va pul-kredit sohasidagi islohotlarning strategik yo'nalishlarini belgilashda muhim nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatining mohiyatini ko'rib chiqishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olimlarimiz A Abdusalomov, B. Berkinov, N, S.Boboyev, A.Vaxobov, N.Jumayev, O.Y.Rashidov, N. Mahmudov, H.Hakimov tadqiqot ishlarida yoritilgan.

MDHda pul-kredit siyosati samaradorligini ta'minlash masalalari, iqtisodiyotning pul-kredit boshqaruvi samaradorligini tahlil qilishning turli jihatlarini bo'yicha E.I.Anoxina, I.A.Alekseyevna I.Бычков, T.M.Koraliev, O.P.Pleshanova, N.V.Sergyev, P.V. Xlyustov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Jumladan, xorijiy olimlardan: J.G.Andrews, A.S.Blinder, B.Bernanke, M.Dohler, R.Dornbusch, J.B.Taylor, S.Thurner, V.B.Iversen, S. Mishkin, J.M.Fleming, S.Poledna, DM.Singh, R.R.Yager, M.Haenggi, va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot doirasida Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlari – xususan, qayta moliyalash stavkasi, majburiy zaxiralash talablari hamda ochiq bozordagi operatsiyalar – orqali bank tizimi, moliyaviy segment va real sektorga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari tizimli ravishda tadqiq etildi. Milliy iqtisodiyotda transmissiya mexanizmining asosiy drayverlari hisoblangan foiz, kredit, valyuta kursi, aktivlar qiymati va inflyatsion kutilmalar kanallarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning milliy iqtisodiyotdagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Mazkur jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlarni belgilashda tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil, shuningdek, iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy bog'liqligini aniqlash imkonini beruvchi empirik metodologik usullardan keng foydalanildi.

Pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmi – bu regulyator tomonidan qabul qilingan strategik qarorlarning (intervension foiz stavkalari, pul agregatlari dinamikasi, majburiy zaxiralash me'yorlari) turli kanallar orqali real sektor ko'rsatkichlariga transformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi murakkab iqtisodiy tizimdir. Mazkur mexanizm pul-kredit impulslarining makroiqtisodiy darajadagi izchil va bosqichma-bosqich uzatilishini ta'minlovchi fundamental aloqadorliklar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotda bozor islohotlarining chuqurlashishi, moliya bozorini liberallashtirish hamda bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi sharoitida transmissiya kanallarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi – Markaziy bank instrumentlarining iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish samaradorligini baholash hamda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mazkur mexanizmi optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, Milliy iqtisodiyotda pul-kredit siyosati – bu to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmini optimallashtirish va inflyatsion bosimni jilovlash maqsadida muomaladagi pul massasini tartibga

solishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisidir. Mazkur siyosat davlatning strategik iqtisodiy yo'nalishlari asosida ishlab chiqilib, bevosita Markaziy bank tomonidan operatsion darajada ijro etiladi. Regulyator ushbu instrumentlar yordamida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini rag'batlantirish va narxlar darajasining volatilligini pasaytirish vazifalarini amalga oshiradi. Binobarin, pul-kredit regulyatsiyasi YaIM dinamikasi, mehnat bozori ko'rsatkichlari va iqtisodiyotdagi umumiy konyunkturaga fundamental ta'sir ko'rsatuvchi asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa** o'rnida ta'kidlash lozimki, pul-kredit siyosatining transmissiya mexanizmi – regulyator tomonidan qabul qilingan strategik qarorlar va qo'llaniladigan instrumentlarning (foiz koridori, likvidlikni tartibga solish, zaxiralash me'yorlari) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga transformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi fundamental tizimdir. Ushbu mexanizmning samarali faoliyat ko'rsatishi, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash hamda inflyatsiya darajasini targetlangan ko'rsatkichlargacha pasaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash jarayonida pul-kredit regulyatsiyasining o'rni izchil ortib borayotganligi sababli, moliya sektorini tartibga solishning zamonaviy usullarini joriy etish va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning inkluziv ekotizimini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning investitsion faolligini rag'batlantirish, nafaqat bank tizimi mustahkamligini, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishini ham ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vaxobov A.V., Jumayev N.X., Xoshimov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'siri. – T.: Akademnashr, 2010.
2. Rashidov O.Y. Pul-kredit siyosati. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
3. Abdusalomov A. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.
4. Boboyev S.S. Bank tizimini transformatsiya qilish sharoitida pul-kredit transmissiya mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Moliya, 2021.
5. Rossiya va MDH olimlarining asarlari
6. Анохина Е.И. Эффективность денежно-кредитной политики в современных условиях. – М.: ИНФРА-М, 2018.
7. Бычков И.А. Трансформационные процессы в банковском секторе и их влияние на реальную экономику. – СПб.: Питер, 2020.
8. Плешанова О.П. Механизмы денежно-кредитного регулирования: теория и практика. – М.: Финансы и статистика, 2019.
9. Xalqaro adabiyotlar va xorijiy olimlar
10. Mishkin, Frederic S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 12th Edition. – Pearson, 2018.
11. Bernanke, Ben S. (2015). The Courage to Act: A Memoir of a Crisis and Its Aftermath. – W. W. Norton & Company.
12. Taylor, John B. (1993). Discretion versus policy rules in practice. *Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy*.

13. Blinder, Alan S. (1998). Central Banking in Theory and Practice. – MIT Press.
14. IMF (International Monetary Fund). Global Financial Stability Report: Navigating the Financial System in the Crisis. 2022-2024 reports.
15. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (12), 127-131.
16. Begnarovich, U. A. (2025). NOMUTANOSIBLIKNING DIAXRON VA SINXRON TAHLILI. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 16-22.
17. URALOV, A. (2026). ALISHER NAVOIY IJODIDA GRAMMATIK MORFEMALARNING DIAXRON TARAQQIYOTI. «ACTA NUUZ», 1(1.3), 338-340.
18. Begnarovich, U. A. (2022). Language Development and Changes in the Composition of Morphemic Units. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(6).